



**“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



UO‘T 633.11 : 631.52

**QATTIQ BUG‘DOYNING FAKUL‘TATIV KUZGI NAMUNALARINI HOSILDORLIGI
BO‘YICHA BAHOLASH NATIJALARI**

Qarshiboyev Hasan Xolbazarovich.,

Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc).,

Amirova Muhayyo Sobir qizi.,

Tayanch doktorant (PhD).,

Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti.,

Tel: +998945764884.,

e-mail: hasankarshiboev1984@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19239607>

Annotatsiya. Maqolada qattiq bug‘doy genetikasi, seleksiyasi va urug‘chiligi laboratoriyasining namunalar tajriba maydonida o‘rganilgan fakul‘tativ kuzgi lalmi qattiq bug‘doy namunalarining hosildorligini tahlil qilish bo‘yicha olib borilgan ikki yillik tadqiqot natijalari keltirilgan. Olib borilgan ikki yillik tahlil natijalariga ko‘ra hosildorligi andoza navdan yuqori bo‘lgan lalmi qattiq bug‘doyning namunalari tanlab olinganligi bo‘yicha tahlil natijalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Qattiq bug‘doy, nav, namuna, fakul‘tativ kuzgi, hosildorlik, baholash, seleksiya.

Аннотация. В статье представлены результаты двухлетнего исследования по анализу урожайности образцов факультативной озимой богарной твердой пшеницы, изученных на опытном участке лаборатории генетики, селекции и семеноводства твердой пшеницы. По результатам двухлетнего анализа были отобраны образцы богарной твердой пшеницы с урожайностью выше стандартного сорта.

Ключевые слова. Твердая пшеница, сорт, образец, факультативная озимая, урожайность, оценка, селекция.

Annotation. The article presents the results of a two-year study on the analysis of the yield of facultative winter rainfed durum wheat samples studied in the experimental plot of the laboratory of genetics, breeding and seed production of durum wheat. Based on the results of a two-year analysis, samples of rainfed durum wheat with a yield higher than the standard variety were selected.

Key words. Durum wheat, variety, sample, facultative winter, yield, evaluation, selection.

Kirish. Qattiq bug‘doy ekini dunyo dehqonchiligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim ekinlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, makaron va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishda uning yuqori sifat ko‘rsatkichlari alohida ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda kuzatilayotgan iqlim sharoitining o‘zgaruvchanligi, suv resurslarining cheklanishi qattiq bug‘doy ekinining tuproq-iqlim sharoitiga moslashuvchan va yuqori hosilli navlarini yaratishni taqozo etmoqda. Shuning uchun qattiq bug‘doyning fakul‘tativ kuzgi namunalarini o‘rganish, hosildorligi bo‘yicha baholash va istiqbolli genotiplarini tanlab olish ularni duragaylash asosida yangi qattiq bug‘doy navlarini yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamiz aholisining har yili oshib borishi bug‘doy doni yetishtirishda yuqori hosilli va don sifatiga ega bo‘lgan bug‘doy navlarini yaratish ustida seleksioner olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirishni taqazo etadi [4].

Lalmikor yerlardan samarali foydalanish, lalmi maydonlarda yetishtirilayotgan g‘alla hosildorligini oshirish, ichki va tashqi bozorda qattiq bug‘doy (*Triticum durum*) doniga bo‘lgan ehtiyojning yuqoriligini hisobga olgan holda noqulay omillariga chidamli, lalmikor maydonlarda ekish uchun hosildor va don sifati yuqori bo‘lgan, davlat andoza talablariga javob beradigan qattiq bug‘doyning yangi navlarini yaratish muhim vazifalardan hisoblanadi [5].

Qattiq bug‘doy hosili salmog‘ini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlar boshqoq uzunligi, boshqoqdagi don soni, boshqoqdagi don og‘irligi hamda 1000 dona don vazni hisoblanib, ushbu



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



ko'rsatkichlarning deyarli barchasi navning biologik xususiyatlariga, navlarni ekish muddati, me'yori, usuli, o'simlikning nam bilan ta'minlanishi, mineral o'g'itlar bilan oziqlanishi va boshqa omillarga uzviy bog'liq bo'ladi [2].

Lalmikor maydonlarda kuzgi boshqoqli don va boshqa qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi ko'p jihatdan atmosfera yog'in-sochinlarining vegetatsiya davrida qanday taqsimlanishiga bog'liq holda o'zgaradi. Bu maydonlarda kuzgi g'alla ekinlaridan barqarorligi yuqori va sifatli hosil yetishtirishning asosiy shartlaridan biri ekiladigan urug'ni qulay agrotexnik muddatlarda sifatli qilib ekish va maysalarning qishki tinim davrigacha to'liq tuplash fazasiga o'tishini ta'minlashdir [6].

Materiallar va uslublar. Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti qattiq bug'doy genetikasi, seleksiyasi va urug'chiligi laboratoriyasining namunalar tajriba maydonida o'rganilgan fakul'tativ kuzgi lalmi qattiq bug'doy namunalari tajriba materiallari hisoblanadi. Tajriba kuzatuvlari, taxlillar butunittifoq o'simlikshunoslik instituti [3] hamda Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti G'allaorol ilmiy tajriba stansiyasi tomonidan qabul qilingan [1] uslubiy qo'llanmalar asosida amalga oshirildi.

Natijalar va munozara. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra namunalar tajriba maydonida o'rganilgan fakul'tativ kuzgi lalmi qattiq bug'doy namunalarning hosildorligi tahlil qilinganda andoza Leukurum-3 navining o'rtacha hosildorligi 201,0 g/m² ni tashkil etdi.

Tahlil natijalariga ko'ra o'rganilgan namunalarda Ikki yillik o'rtacha hosildorlik ko'rsatkichlari 162 g/m² dan 266,5 g/m² gacha bo'lganligi aniqlandi. Tahlillarga ko'ra andoza navdan hosildorlik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan №13 Tilling / Icajihan 1 namunasi (266,5 g/m²) hosildorligi andozadan 65,5 g/m² yuqori, №20 Miki 3 (254,5 g/m²) 53,5 g/m², №8 Sebatel 2 // Wdz 6 (229,5 g/m²) 28,5 g/m², №5 Mrb 3/Mna 1 (229,0 g/m²) 28,0 g/m² va №4 ig 1523174 (227,0 g/m²) 26,0 g/m² yuqori hosildorlikka ega ekanligi kuzatildi. Ushbu namunalar lalmi sharoitga moslashuvchan va yuqori hosildor namuna sifatida tanlab olindi.

O'rganilgan namunalarni yillar kesimida tahlil qilganimizda, 2024 yilda ayrim namunalar (№13 Tilling / Icajihan 1 namunasi 308,0 g/m² va №20 Miki 3 namunasi 274,0 g/m²) juda yuqori natija ko'rsatgan bo'lsa, 2025 yilda ko'pchilik namunalarda hosildorlik nisbatan barqaror yoki biroz pasayganligi aniqlandi. Bu holat yillar bo'yicha ob-havo sharoitlarining farqlanishi bilan izohlanadi. Masalan, №23 Ouasloukos 1/5/0 namunasi hosildorligi 2024 yilda 138,0 g/m² bo'lgan bo'lsa, 2025 yilda 213,0 g/m² ga yetgan, ya'ni muhit sharoiti yaxshilanganda uning mahsuldorlik salohiyati namoyon bo'ldi. Bu esa genotip va muhit o'zaro ta'sirining mavjudligini ko'rsatdi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra ikki yillik o'rtacha hosildorlik ko'rsatkichi bo'yicha №13 Tilling / Icajihan 1, №20 Miki 3, №8 Sebatel 2 // Wdz 6, №5 Mrb 3/Mna 1 va №4 ig 1523174 namunalari seleksiya ishlarida yuqori hosildor namunalar sifatida foydalanish uchun ajratib olindi (1-jadval).

1-jadval.

Qattiq bug'doyning fakul'tativ kuzgi xalqaro dastlabki nav sinash tajriba maydonidan hosildorligi yuqoriligi bo'yicha tanlab olingan namunalar (G'allaorol -2025-yil).

№	Nav namunalar nomi	Hosildorlik, (g/m ²)			Andozadan farqi, (g/m ²)
		2024 y	2025 y	O'rtacha	
1	Leukurum-3 (an)	206,0	196,0	201,0	±



**“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



2	№2 Omrabi 5 (Joric 69)	164,0	245,0	204,5	3,5
3	№3 ig 1523082	162,0	184,0	173,0	-28,0
4	№4 ig 1523174	214,0	240,0	227,0	26,0
5	№5 Mrb 3/Mna 1	234,0	224,0	229,0	28,0
6	№6 Mrb 3/Mna 1 // Ter	190,0	190,0	190,0	-11,0
7	№7 Sebatel 2	178,0	213,0	195,5	-5,5
8	№8 Sebatel 2 // Wdz 6	240,0	219,0	229,5	28,5
9	№9 Ouasloukos 1/5	148,0	180,0	164,0	-37,0
10	№10 CM 829 / Candocr	217,0	198,0	207,5	6,5
11	№11 Tilling / ch 17	164,0	215,0	189,5	-11,5
12	№12 Tilling / Gil 4	198,0	208,0	203,0	2,0
13	№13 Tilling / Icajihan 1	308,0	225,0	266,5	65,5
14	№14 Mrb 3*2 / Amar 8	198,0	182,0	190,0	-11,0
15	№15 Ouasloukos 1/5/Gil	214,0	175,0	194,5	-6,5
16	№16 Ouasloukos 1/5/Az	144,0	208,0	176,0	-25,0
17	№17 Ouasloukos / 9955	140,0	184,0	162,0	-39,0
18	№18 Ouasloukos / 9986	150,0	219,0	184,5	-16,5
19	№19 IcaJoudy ¼	218,0	216,0	217,0	16
20	№20 Miki 3	274,0	235,0	254,5	53,5
21	№21 Tilling / ch 113/4	184,0	218,0	201,0	±
22	№22 Mrb 3*2 / Turartu	180,0	190,0	185,0	-16,0
23	№23 Ouasloukos 1/5/0	138,0	213,0	175,5	-25,5
24	№24 Ouasloukos1/5/Bel	162,0	197,0	179,5	-21,5

Xulosa. Tadqiqot natijalariga asoslanib shuni xulosa qilish mumkinki lalmi maydonlarda fakul'tativ kuzgi qattiq bug'doy namunalari qisqa o'suv davriga ega bo'lib, noqulay ob-havo sharoitlariga chidamliligi bilan ajralib turdi. Ularning hosildorlik ko'rsatkichini tahlil qilish yuqori samarali namunalarni tanlab olish imkonini berdi. Shuningdek, tahlillarga ko'ra fakul'tativ kuzgi qattiq bug'doy namunalari qisqa muddatli sovuqlarga chidamli, o'suv davri nisbatan moslashuvchan, noqulay iqlim sharoitida yuqori hosil bera olishi bilan seleksiya ishlarida muhim ahamiyatga ega ekanligi kuzatildi.

Olib borilgan ikki yillik tadqiqot natijalariga ko'ra andoza navdan hosildorlik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan №13 Tilling / Icajihan 1, №20 Miki 3, №8 Sebatel 2 // Wdz 6, №5 Mrb 3/Mna 1 va №4 ig 1523174 namunalari seleksiya jarayonida foydalanish uchun yuqori hosildor namunalar sifatida tanlab olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amanov A. A. va boshqalar. Donli ekinlar seleksiyasi va boshlang'ich urug'chiligi bo'yicha uslubiy qo'llanma. G'allaorol 2004 yil.
2. Abirov Z.Z. Analysis of “Durum” varieties of wheat, spike length, number of grains in spike, indicators of 1000 seed weight icarhse International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education Malaysia conference.2022. P.69.
3. Изучение мировой коллекции пшеницы. Методические указания. ВИР. Ленинград 1984.
4. Мамеев В.В., Сычева И.В., Сычев С.М. Влияние гуминовых и минеральных удобрений на урожайность озимой пшеницы. Агрохимический вестник. №5. 2015. С. 6-9.



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



1. Qarshiyev A. Lalmikorlik sharoitida yetishtirilgan qattiq bug'doyning o'suv davrida tuproqdagi namlik miqdori. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. To'plam 2-son. 2024. B. 3.
2. Xaydarov B. Iqlim o'zgarish sharoitida lalmi maydonlar uchun qurg'oqchilikka chidamli ekin navlarini yaratish va yetishtirish agrotexnikasi. Respublika ilmiy -amaliy anjumani. 2022-yil 30-may. B. 12.